

SOVET DAVRIDA ‘HUJUM’ HARAKATI: AYOLLAR OZODLIGI  
SIYOSATINING IJTIMOYIY-TARIXIY TAHLILI

<https://doi.org/10.70728/conf.edu.v3.i4.001>

*Isrofilova Dilfuza*  
*Sharof Rashidov nomidagi*  
*Samarqand davlat universiteti*  
*4 -kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘tgan asrning 20-30 yillarida SSSR da amalga oshirilgan, Hujum harakati "va u orqali ko‘zlangan maqsad, xotin -qizlar ozodlikka chiqarilishi uning salbiy ta’sirlari haqida ma’lumot beriladi.

**Kalit so‘zlar:** „Hujum harakati“, Sho‘ro hukumati, jadid bobolar, Chingiz Aytmatov, ayollar ozodligi, jensovet, 1927-yil 8-mart, artellar, pravda vostok

**Аннотация:** В данной статье рассматривается «Худжумское движение», проведённое в 20–30-е годы прошлого века на территории SSSR. Описываются его цели, включая освобождение женщин и вовлечение их в общественную жизнь. Анализируются положительные и отрицательные последствия данной кампании для общества.

**Ключевые слова:** «Худжумское движение», Советская власть, джадидские деятели, Чингиз Айтматов, освобождение женщин, женсовет, 8 марта 1927 года, артели.

**Annotation:** This article examines the “Hujum Movement” carried out in the 1920s–30s in the territory of the Soviet Union. It describes the movement’s objectives, including the emancipation of women and their participation in social life. The positive and negative impacts of this campaign on society are analyzed.

**Keywords:** “Hujum Movement”, Soviet government, Jadid reformers, Chingiz Aitmatov, women’s emancipation, women’s council, March 8, 1927, artels.

## KIRISH

XX asr juda ko‘p jarayonlarga guvoh bo‘ldi. Shunday voqealardan biri SSSR hududida 20-asrning 20-30 yillarida amalga oshirilgan Hujum harakati edi. „O‘rta Osiyo hududi sovet davlati tarkibiga kiritilgach, mahalliy boshqaruv tizimi, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy sohalar yangicha asosda qurila boshladi. Bu jarayonda hukumat mahalliy xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni “zamonaviylashtirish”, jamiyatda erkaklar bilan teng faoliyat yuritishini ta’minlash (keyinchalik ular mehnatidan keng foydalanish) masalasiga jiddiy e’tibor qaratdi”<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Oyina

Aslida Sovet hokimiyati o'rganilgach bu yerda dastavval milliy istiqloqlilik harakatini bostirdi, milliy ziyolilarimizni qatag'on qildi va endigi navbat ayollarni ozodlikka chiqarish bahonasida boshqa boshqa maqsadlarni ko'zlagan Sho'rolar tuzumi aslida bu yerdagi xalqning asrlar davomida saqlanib qolgan milliy qadriyatlar va an'alariga, urf odatlari ayniqsa diniy hayotiga katta zarba bermoqchi bo'lgan edi. Qolaversa jadid bobolarimiz Abdulla Avloniy, Munavvar qori Abdurashidxonov xotin -qizlar masalasida sho'ro hukumatidan avval ayollarni ozodlikka chiqarish, ularga ilm o'rgatish kerakligi borasida o'z fikrlarini aytib o'tishgan edi. Xo'sh shunday ekan xotin -qizlar ozodlikka chiqarish va ularni paranjilarini yechib tashlash sovet hokimiyatiga nimaga kerak edi? Biz shu savollarga javob topishimiz kerak...

### Asosiy qism

1926-yil sentyabr oyida bo'lib o'tgan III o'lka partiya yig'ilishida bolsheviklar partiyasi xotin -qizlarni ozodlikka chiqarishga e'tibor qaratd<sup>2</sup>. Xo'sh bundan ko'zlangan maqsad aslida xotin -qizlar ozodlikka chiqarish orqali sovet hokimiyati birinchi navbatda bu yerdagi milliy qadriyatlar va dinga qattiq zarba berish bo'lsa, ikkinchi tomondan esa sovet hokimiyati uchun tekin ishchi kuchiga ega bo'lish kerak edi.<sup>3</sup> Sho'ro hukumati „Din – xalq uchun afyundir“<sup>4</sup> degan g'oya asosida ish yuritayotgan bir paytda „xotin-qizlarni ozodlikka chiqarish va shu yo'l orqali ularni diniy ulamolarga qarshi qilib qo'yimoqchi bo'ldi va maqsadiga erishdi desak ham adashmagan bo'lamiz. Shu o'rinda ulug' adib Chingiz Aytmatov „Hujum“ kampaniyasi haqida shunday deb yozgan edi: „Afsuski, davlat tomonidan o'tkazilgan „Hujum“ kampaniyasi o'sha davrning og'ir xatosi edi, deyish kamlik qiladi. Bu insoniyatga qarshi qaratilgan jinoyat edi. Ustiga-ustak, ilohiy olamning qurilmasiga qarshi yo naltirilgan jinoyat edi, Xudoning barqarorligini inkor etganmo'rtadlar Xudoning vazifasini o'z zimmasiga oladilar va «Yangi odam yaratamiz» deb, dahshatli o'yin boshlaydilar.<sup>5</sup> degan edi.

Xo'sh bu bilan Chingiz Aytmatov nima demoqchi bo'lgan edi?

To'g'ri xotin -qizlarga nisbatan tazyiq o'tkazish, ularni kamsitish ham dunyoviy va ham diniy taraflama noto'g'ri. Ular ham barcha erkaklar singari ilm olishga haqlidir, ularning ham oilada, jamiyatda erkaklar bilan o'rni tengdir. Lekin xotin -qizlarga erkinlik berish darhaqiqat o'sha davrda kerak edi, lekin bu sovetlar tomonidan amalga oshirilgan tazyiq o'tkazish, majburlash kabi holatlar bilan emas balki o'z xohishi bilan amalga oshirilishi kerak edi. Afsuski o'sha paytda respublikamizning aholisi Sho'ro hukumatiga qaram

<https://oyina.uz/uz/article/219>

<sup>2</sup> O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar) 1-kitob (1917-1939-yy). Toshkent - „O'zbekiston -2019“ .495-bet

<sup>3</sup> Narzulla Jurayev, Shodi Karimov. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida II kitob. Sharq nashriyoti matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati-2011.418-bet.

<sup>4</sup> Narzulla Jurayev, Shodi Karimov. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida II kitob. Sharq nashriyoti matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati-2011.413-bet.

<sup>5</sup>

edi. Bundan tashqari I. Stalin siyosati natijasida qanchadan qancha jadid bobolarimiz qurbon bo'lishgani hammamizga ma'lum. Eng achinarlisi bu tuzum ayollarga ham shavqat qilmadi.

“Hujum” kompaniyasining ilk yillari ko'p ayollar paranji tashlab (1927-yil bahorida 100 ming nafar), ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda qatnasha boshlagan bo'lsa-da, bu siyosatni amalga oshirish salbiy oqibatlar bilan kechdi. O'zbekiston SSR prokuraturasiga viloyatlardan o'ta maxfiy tamg'a ostida topshirilgan hisobotlarda qayd etilishicha, 1927 yili “Hujum” harakati aholining ma'lum bir qismi, jumladan, davlat tashkilotlarida ishlaydigan erkaklar ayoli, shuningdek, kambag'al va batraklar oilasi tomonidan qo'llab-quvvatlangan, ulamolar, boylar, savdogarlar esa unga qarshi targ'ibot-tashviqot olib borgan<sup>6</sup> Ammo Hujum kompaniya tomonidan o'tkazilgan ayollarni ozodlikka chiqarish har doim ham ijobiy ta'sir olib kelmagan. Ularning o'z paranji va chachvonlarini yechib tashlashi o'z yaqinlari, diniy ruhoniylar, mullalar va erlari tomonidan qattiq qarshilikka duch kelgan va natijada ko'pchilik ayollar o'z yaqinlari tomonidan o'ldirilgan, kamsitilgan. Eng yomoni salbiy jihatlardan biri ayollar ozodlikka chiqa boshlagach ular ajirim uchun ariza topshira boshlagan va ajrimlar ko'paygan. Natijada oilalarda otasi yo'q yetim qolgan bolalar soni ko'payishiga olib kelgan. Hujum kompaniyasi sovet hokimiyati tomonidan 2 bosqichda amalga oshiriladi. 1 bosqichda: 1927-yilning sentabridan to 1927-yilning fevraligacha davom etadi Hujum kompaniyasining ikkinchi, asosiy bosqichi 1927-mart oyidan to 1932 yilgacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi.<sup>7</sup> 1927-yil 8-mart kuni paranji tashlash marosimi bilan bog'liq mitinglar boshlanib ketdi. 100 mingga yaqin xotin -qizlar paranjilarini tashladilar. Ularning ko'pchiligi savodsizlikni tugatish maktablarida o'qigan bo'lsa, yana ba'zilar esa artellarda ishlashga bordilar. Aslida bunday holatlar sho'ro hukumati uchun juda qo'l kelgan. Ammo bu davrda ayollar huquqlari, ularga nisbatan tazyiq o'tkazish va hattoki qatag'on kabi holatlar ham kuzatildi. 1927-yil 8-mart kuni paranji tashlash marosimi bilan bog'liq mitinglar boshlanib ketdi. 100 mingga yaqin xotin -qizlar paranjilarini tashladilar. Ularning ko'pchiligi savodsizlikni tugatish maktablarida o'qigan bo'lsa, yana ba'zilar esa artellarda ishlashga bordilar. Aslida bunday holatlar sho'ro hukumati uchun juda qo'l kelgan. Ammo bu davrda ayollar huquqlari, ularga nisbatan tazyiq o'tkazish va hattoki qatag'on kabi holatlar ham kuzatildi. Masalan, faqat Samarqand viloyatida 1926–1928 yillarda 300 ta xotin-qiz o'ldirilgan, jumladan, o'z yaqin qarindoshlari va umr yo'ldoshlarini o'ldirish holatlari ko'payib borgan. Samarqand okrugi Yuqori Darxon rayonida jamoatchi ayol Zuhra Tohirova yovuzlarcha o'ldirilgan. Komsomolga a'zo bo'lgani uchun Rafoat, “Hujum” fabrikasining ishchisi Ochilxon Sodikova esa badiiy havaskorlik to'garagiga qatnashganligi uchun ularning erlari

<sup>6</sup> Oyina

<https://oyina.uz/uz/article/219>

<sup>77</sup> O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar) 1-kitob (1917-1939-yy). Toshkent- „o'zbekiston -2019“. 495-496-betlar.

tomonidan o'ldirilgan. 1927 yil 27 iyunda Kokon viloyati Buvayda tumanining Poloson qishlog'ida dehqon Abdukodir Xojimatov o'z ayolini paranjini tashlab, faoliyat ko'rsatgani uchun osib o'ldirgan.<sup>8</sup> Albatta bu raqamlar kimlar uchun kam kimlar uchun ko'p, Lekin bunday ayollarning o'z yaqinlari tomonidan o'ldirilishi yoki kaltaklanishini ham oqlab bo'lmaydi. Axir o'ylab ko'ring ayollarsiz jamiyat qanday bo'lar edi, nahotki shu kimsalar o'zi singlisi yoki onasi bo'lishi mumkinligini o'ylamadi bu kimsalar.

Bundan tashqari Sho'ro hukumati tomonidan „Xotin qizlar kengashi“ (jensovet)<sup>9</sup> tuzildi. Lekin bu tashkilot qo'pol ravishda oilalarga aralashib, ko'pincha ayollarni erkaklarga nisbatan qarama-qarshi qo'yidilar. Tog'ri erkaklar va ayollar teng huquqli. Lekin bir o'ylab ko'ring bizning jamiyatimizda onamiz otamizga tik qarab gapirishi qanday xunuk holat bo'ladi. Shu uchun ham bu xunuk illatlar bizning qadriyatlarimizga ham urf odatlarimizga ham mutlaqo tog'ri emas. Chunki bizning mard jasur ota bobolarimiz qadim qadim zamonlardan ayollarga, xotin -qizlarga qanday maumalada bo'lish kerakligi borasida namuna bo'lib ketishgan.

Qolaversa yana bir masala xo'sh ayollar nima uchun o'z paranjilarini yechdi, ular o'z qadriyatlariga hurmatsizlik qilmadimi? O'sha paytlarda ko'pchilik paraji yechgan ayollar o'zi erta turmush natijasida o'zidan ancha katta va qari bo'lgan mullalarga yoki erkaklarga turmushga berilganligini ham aytib o'tishimiz lozim. Shunday ekan ular o'z erki uchun kurashdi, vaholanki 70 ga kirgan bobo o'z nevarasi tengi 10-12 yashar qizlarga uylanishi qanchalik adolatli buni bilmadim. Quyidagi „Provda Vostoka“ gazetasida keltirilgan ma'lumotlar fikrimiz dalilidir: "Uylantirilganimda 15 yoshga ham to'lmagan edim. 20 yoshimdan boshlab mustaqil ishlashim kerak edi — erim vafot etdi va bolalarni boqishim kerak edi. Kooperativda farrosh, kir yuvishchi bo'lib ishladim va do'ppilar tikdim", deydi farg'onalik bir ayol o'z hikoyasini. "1924-yilda men partiyaga qo'shildim va burqamni yechdim... Men ular erlaridan qo'rqmasliklari kerakligini ta'kidlab, targ'ibot kampaniyasini olib bordim — axir ular o'zlari tirikchilik qilishadi"<sup>10</sup>

Farg'onalik yana bir qiz 12 yoshida notanish odamga turmushga berildi. U o'qishni xohlardi, lekin eri unga ruxsat bermadi. "Men burqamni faqat [1927]-yil fevral oyida yechdim — men doim ishonlar va mullalardan qo'rqardim. Ular meni zo'rlashlari mumkin edi. Boshqa ayollar esa ulardan qo'rqishadi...", dedi u. Xo'sh faqat tuzumni ayblayvermasdan aybni qachon o'zimizdan qidiramiz? Menimcha mana shu kabi jihatlar ham ayollarning, xotin -qizlarning erki va ozodligiga turtki bo'lgan sabablardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.

## Muhokama

<sup>8 8</sup> O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar) 1-kitob (1917-1939-yy). Toshkent - „o'zbekiston -2019“ .497-bet

<sup>9</sup> Narzulla Jurayev, Shodi Karimov. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida II kitob. Sharq nashriyoti matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati-2011.418-bet.

<sup>10</sup> Худжум: Как женщины Узбекистана отказывались носить паранджу и чего стоило право распоряжаться своим телом <https://www.gazeta.uz/ru/2024/03/08/history-of-hujum>

Bugungi globallashtirish jarayonida gender tengligi, ayollar huquqlari ularning sha'ni, qadr -qimmatini har qachongidan ham yuqori daajaga yetmoqda. Ayniqsa Yurtimizda amalga oshirilgan islohotlar xotin -qizlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Lekin o'tgan asrning 20-30 yillarida vaziyat boshqacha edi. Sho'ro hukumati go'yoki xotin -qizlarni ozodlikka chiqarish bahonasida o'zlarining asl maqsadlarini ko'zlagan edi. Chunki bu davrda SSSRDA sanoatlashtirish jarayoni amalga oshirilib, korxonalar soni oshirilgan. Natijada bu ular uchun o'ziga xos niqob vazifasini bajargan. Eng achinarlisi ayollar erkaklar kabi og'ir mehnatlarga ham jalb etilgan, ularga mos bo'lmagan ishlar masalan traktorlar haydash o'qitilgan. Xo'sh bu nima uchun kerak deganda hech shubhasiz Shoro' hukumati uchun arzon mehnat resursi va ishchi kuchi edi. «Pravda Vostoka» gazetasi 1932-yil 10-iyul sonida yozilishicha, qishloq xo'jaligida ayollar erkaklar uchun mo'ljallangan normalarni ham oshirib bajara boshlaganlar.<sup>11</sup> Yana bir narsa o'sha davrda ko'plab erkaklar „quloqlashtirish“ siyosati natijasida qurbon bo'lgan, milliy ziyolilar qatag'oniga uchragan. Ayollarni sanoat korxonalarini va artell tashkilotlariga jalb etishdan shu kabi maqsadlarni ko'zlagan bo'lishi ham mumkin. 8-mart esa Xotin -qizlar bayrami deb Sovet davridan meros qolgan tushunchaga ko'pchilikda turlicha qarashlar bor. Ba'zilar bu ayollarning ozodligi deyishsa, yana bir taraf esa bu diniy qadriyatlarimiz toptalgan kun sifatida qarashadi. Bir narsani tushunib olishimiz kerak biz bugun Hujum kompaniya amalga oshirgan 8-mart kunini paranji tashlash uchun qilingan ayollar ozodligi uchun emas, balki hammamizning onalarimiz opa -singillarimizga hurmat ehtirom, ularni e'zozlash, ardoqlash nuqtai nazaridan nishonlaymiz. Shu uchun ko'pchilikda bu kunga nisbatan noto'g'ri talqin bo'lmasligi kerak.

«Qatag'on» yillarida «Hujum» harakatini quvonch bilan qabul qilib, unga o'z kuchi, shijoati va hatto hayotini bag'ishlagan ayollarning ko'pchiligi fojiali taqdirga duch keldi. Ular jamiyatni yangilash, ayollar erkinligi va tengligi yo'lida fidokorona kurash olib bordilar. Biroq adolatsizlik asosida qurilgan mustabid tuzumning shafqatsiz jazo siyosati jamiyat hayotidagi eng tabarruk zot — ayollarga ham rahm qilmadi. Go'zallik, mehr-muhabbat va fidoyilik timsoli bo'lgan bu insonlar ham qatag'on siyosatining qurboniga aylandilar. Ayniqsa, 1937–1938-yillarda qatag'onlar o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Bu davrda «Hujum» harakatining faol ishtirokchilari — Tojixon Shodiyeva, Sobira Xoldorova, Xosiyat Tillaxonova, Maryam Sultonmurodova, Xayriniso Majidxonova kabi ko'plab jasur ayollar hamda minglab oddiy ishchi-dehqon ayollar, madaniyat va fan arboblari asossiz ravishda qatag'on qilindilar<sup>12</sup>

## Xulosa

<sup>11</sup> O'zbekistonning yangi tarixi Ikkinchi kitob O'zbekiston: sovet mustamlakachiligi davrida Mas'ul muharrir: — Toshkent: «Sharq» nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 2000 yil.384-bet

<sup>12</sup> O'zbekistonning yangi tarixi Ikkinchi kitob O'zbekiston: sovet mustamlakachiligi davrida Mas'ul muharrir: — Toshkent: «Sharq» nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 2000 yil.385-bet

Xulosa qilib aytganda, o'tgan asrda amalga oshirilgan Hujum harakati boshqa maqsadlarni ko'zlagan bo'lsa da lekin uning ijobiy tomonlari ayollar ham savodsizlikni tugatish maktablarida ta'lim ola boshladilar, kasb hunarga o'qitilib ularning soni kengayib bordi. Xo'sh bu ishlarning samarasi respublikamiz ko'pchilik erkaklari ikkinchi jahon urushida qatnashgan bir paytda ayollarimiz front orti va hattoki front janglarida ham matonat ko'rsatgani buning yaqqol dalilidir. Ammo eng achingan tomoni va jihati ularning o'z yaqinlari tomonidan o'ldirilishi yoki kaltaklanishini, kamsitilishi edi. O'zi shunday ham siyosiy bosim, qatag'onlashtirish, quloqlashtirish va ma'muriy buyruqbozlik jarayoni ketayotgan bir paytda xotin qizlarning o'z yaqinlari tomonidan bunday ishlarni amalga oshirilishi mutlaqo tog'ri emas. Faqat tuzumni yomonlagan bilan ish bitmaydi ular qanchalik yomon bo'lmasin. Sen o'z vataningni, oilangizni, onangizni, opa -singillaringizni himoya qila olmas ekansiz albatta ular boshqalar tomonidan jabr chekishadi. Hujum kompaniyasi tomonidan amalga oshirilgan ishlar va uning natijasida qurbon bo'lgan xotin - qizlar ana shunday qurbonlardan biri edi. Shuning uchun ham bugungi kunga kelib ayollarimiz, xotin - qizlarimizga juda katta imkoniyatlar, eshiklar ochilyapti. Mana shunday tarix jarayonlaridan xulosa chiqarish va ularni tahlil etish, saboq olish va bu ishlarni boshqa takrorlamaslik yosh -u qari uchun bir xil darajada muhimdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Narzulla Jurayev, Shodi Karimov. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida II kitob. Sharq nashriyoti matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati - 2011
2. O'zbekiston tarixi (1917-1991-yillar) 1-kitob (1917-1939-yy). Toshkent - „o'zbekiston - 2019“
3. O'zbekistonning yangi tarixi Ikkinchi kitob O'zbekiston: sovet mustamlakachiligi davrida  
Mas'ul muharrir: —Toshkent: «Sharq» nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, 2000 yil.
4. Oyina  
<https://oyina.uz/uz/article/219>
5. Худжум: Как женщины Узбекистана отказывались носить паранджу и чего стоило право распоряжаться своим телом <https://www.gazeta.uz/ru/2024/03/08/history-of-hujum/>